



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 300 sahifa,
1-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Milliy xarakter tushunchasining pedagogik va aksiologik talqini.....	10
Usmonova Muattar Bahadirjonovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zini o'zi anglashida muloqotning o'rni	14
Yaxshiboyeva Zuhra, Pardayeva Munisa	
Maktabgacha ta'lim tizimida sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishning zamonaviy usullari	17
Dilsora Shodmonova	
Педагогические предпосылки развития билингвизма у детей в дошкольных образовательных учреждениях	24
Истамова Нигора Азимжановна	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida neyrogimnastika texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari.....	29
Saidova Nigora Olimovna, G'ulomova Shaxnoza Abdusalom qizi	
Jismoniy tarbiya va sport: iqtidorli yoshlarni tanlash, saralash va ularni maqsadli tayyorlashning zamonaviy yo'llari.....	32
Muxamedjanov Shovkat Muxrumovich	
Yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tarixiy xotira, milliy meros va qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari.....	36
Nomozov Muhammadyusuf Meyliqul o'g'li	
Sport tashkilotlarida rahbarlik qilish va boshqarish.....	40
Artikov Xayrulla Baxtiyarovich	
Formation and Development Stages of Terminology as a Scientific Discipline	44
Lola Mannobova	
Lexicographic Features of Onomastic Units in English and Uzbek Dictionaries	48
Berdiyeva Mashhura Tulqin qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining qobiliyat, qiziqish va o'rganish usullarini hisobga olgan pedagogik metodlar va dars rejaları	51
Abdullaeva Gulmira, Egamberganova Yorqinoy Ollobergan qizi	
Disputning ingliz romanlaridagi pragmatik va lingvokulturologik ko'rinishlari	55
Abdumalikova Diyoraxon Rafiqjon qizi	
O'yin texnologiyalarining aqliy rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni	59
Abdunazarov Abdumutal Olimovich	
Auditoriyada va auditoriyadan tashqari jarayonda talabalar ijtimoiylashuvini rivojlantirish mexanizmlari	64
Alimova Gulrux Farhod qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda interaktiv o'yin texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlari	70
Axtamova Mohinur O'tkir qizi	
Oilaviy zo'ravonlikka uchragan ayollarni qo'llab-quvvatlashda mahalla va ijtimoiy xizmatlarning o'rni	74
Dumarova Gulfira Kozimbekovna, To'Iqinova Muxlisaxon Jamshid qizi	
O'zbek milliy romanchiligida tarixiy haqiqat va badiiy talqin (Xayriddin Sultonning "Yaldo kechasi" romani misolida)	78
G'aybulloyeva Parvina Samandar qizi	
Aqli zaif bolalarda kommunikativ faoliyatning ontogeneza shakllanishi	82
Hamraqulova Durdona Dilshod qizi	
Neuroeducation va Phygital Learning asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kognitiv faolligini rivojlantirish metodikasi	87
Hikmatova Yulduz Nuritdinovna	



Autizm spektri buzilgan bolalarning ijtimoiy-pedagogik moslashuvining nazariy asoslari	91
<i>Shodmanxojiyeva Iroda Ne'matulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda o'yin texnikalarining roli	95
<i>Jamolova Farida Fatillo qizi</i>	
Ta'lim qardosh tillarga yo'naltirilgan mtt direktorining boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida)	98
<i>Jumagulova Gulziya Madiyarovna</i>	
Oliy ta'limda talabalarning raqamli taqdimot va ommaviy nutq ko'nikmalarini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish	103
<i>Junaydullayev Oxunjon Kaxorjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'yin texnologiyalari orqali nutq malakalarini rivojlantirish	107
<i>Maqsuda Maxsudovna Murodova</i>	
O'zbek tilida "nur" so'zining ko'chma ma'nolari	113
<i>Maxbuba Axatova</i>	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari	116
<i>Misirova Nodira Tovbayevna, Nosirova Dilfuza Sa'dullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tilida og'zaki nutqini shakllantirishdagi qiyinchiliklar	120
<i>Nabiyeva Xilola Abdulmuratovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-ma'rifiy qiyofasini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari... ..	123
<i>Niyozova Maftuna Normaxmat qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida "Tarbiya" fanini tabiiy fanlar bilan integratsiyalash asosida ekologik tafakkurni shakllantirish.....	126
<i>Norbo'tayeva Iroda Yunusovna</i>	
Suzish vositalari yordamida talabalarning qo'l va oyoq mushaklarini rivojlantirish metodikasi	130
<i>Nosirov Sardor To'lqinjon o'g'li</i>	
Bo'lajak pedagoglarning metakognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	134
<i>Nosirova Ra'no Xamidovna</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	137
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqida noverbal vositalarning roli	142
<i>Qurbanova Surayyo Tuynazar qizi, Maqsudboyeva Dilbar Olimjon qizi</i>	
Texnologiya fanini o'qitishda integrativ yondashuvning pedagogik zarurati va nazariy asoslari	146
<i>Qurbonmurotov Eldor Abdusaidovich</i>	
O'zbekistonning zamonaviy ta'lim muhitida o'zbek-rus bilingvizmi sharoitida o'quvchilar nutqining psixolingvistik xususiyatlari.....	149
<i>Qurdasheva Bonu Bexzod qizi</i>	
Xorij olimlari tadqiqotlarida prosotsial xulq-atvor namoyon bo'lishining o'rganilishi	153
<i>Rahimova Sarvinov Odilboy qizi</i>	
Musiqqa fanlarini o'qitishda inquire-based learning texnologiyasidan foydalanish metodlari.....	157
<i>Raximova Dilbar Rizakulovna</i>	
Maktab rahbarining qaror qabul qilish uslubi pedagogik jamoa ijtimoiy faolligini rivojlantirish omili sifatida..	161
<i>Raximova Maryam O'tkir qizi</i>	
Yosh sportchilarda yurak-qon tomir tizimining morfofunksional adaptatsiyasi va sportchi yuragi fenomeni..	173
<i>Alimova Nasiba Adxamovna</i>	
Mintaqaviy iqtisodiyotda turizm klasterlarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	179
<i>Kurbonova Kamola Ilxomovna</i>	
Nutq madaniyati va notiqlik san'ati	183
<i>Mamadaliyeva Lola Shailyasovna</i>	
Molekulyar fizikada klasster yondashuvi asosida masalalar yechish samaradorligini oshirish	188
<i>Mirzamuratov Baxodir Fayzullayevich</i>	
Oliy o'quv yurtlari, sport tashkilotlari va sport marketingi tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning zarurati.....	192
<i>Samatov Javlonbek Abdukayumovich</i>	

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini texnologiya darslarida turli materialdan amaliy ishlarni tashkil qilish metodikasi	195
Sanakulov Xamrakul Rizakulovich, O'roqova Nigina Botirjon qizi, Xoliqulova Ozoda Shuxratovna	
Modern Teaching Methods in English Language Learning.....	199
Sarvinoz Abdulhakimova	
Erkin Vohidov ijodining o'rganilishi	202
Shahnoza Muhammadiyeva	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida nutqiy faoliyatni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	205
Shopulatova Nasiba Umirovna	
Yuqori intensivlikdagi atsiklik yuklamalar ta'sirida futbolchilar organizmi funksional holatining yoshga oid xususiyatlari.....	208
Shukurova Sayyora Sa'dullaevna, Kadirov Abdurashid	
Talabalarda badiiy did va estetik tarbiyasini rivojlantirish pedagogik muammo sifatida	211
Temirov Murodjon Anvarovich	
The Role of Authentic Materials in Teaching English for Specific Purposes: Implications for Tourism Students.....	215
Toshmamatova Marjona Olimjon kizi	
Neyrokognitiv rivojlanish va bolalarning maktabga psixologik tayyorgarligi o'rtasidagi bog'liqlik	220
Toshpo'latova Mahina Farxod qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda terminologik tafakkurni rivojlantirishning nazariy asoslari	224
Umaraliyeva Shahlo Sayfullo qizi	
Artistic Pedagogy as a Basis for Developing Spiritual-Communicative Culture in Student Youth: Pedagogical Foundations	228
Umarova Malika Khisabidinovna, Orifjonova Kamolabonu Kozimbek qizi	
Pragmatic Competence and Cultural Adaptation in EFL Contexts: Challenges and Pedagogical Implications.....	232
Veronica Khatamova	
Ta'lim tojik tilida olib boriladigan maktablarda morfologiya o'qitish muammosi	236
Xojiyeva Iroda Zokirjon qizi	
Innovatsion yondashuv asosida "Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish" modulini o'qitish metodikasi muammo sifatida	240
Zaxro Yo'ldashovna Shanasirova	
Interaktiv topshiriqlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining chet tiliga bo'lgan qiziqishlarini individuallashtirish	246
Nishonova Gulchehra Ravshanjon qizi	
The Role of Project-Based Learning and Artificial Intelligence Technologies in Enhancing Foreign Language Students' Academic Achievement and Motivation.....	250
Olimov Sh. Sh., Zaripov K. Ya.	
Mechanisms for Assessing Academic Achievements in the Finnish Education System and the Possibility of their Adaptation In Schools In Uzbekistan	254
Saytbekova Svetlana Saylaubaevna	
Maktabgacha ta'limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish	257
Xoldorova Mashxura G'ulomovna	
Finlyandiya ta'lim tizimida o'quvchilarning o'zlashtirishini baholash mexanizmlari va ularni O'zbekiston maktablarida qo'llash istiqbollari.....	260
Xudaybergenova Zuxra Isakovna	
Jadidchilik harakati va uning pedagogik-ijtimoiy mohiyati hamda tamoyillari	263
Yusupov Ma'mur Ma'rufovich	
Проблемы нравственного воспитания личности в произведениях В. Распутина.....	269
Рахимова Шахзода Равшановна	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik kompetensiyalarni shakllantirishning pedagogik omillari	273
Imamova Nasiba Xurramovna	



Bo'lajak biologiya o'qituvchilarida tolerantlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari	276
<i>Xidirov Faxriddin Fozilovich</i>	
Транслингвальные практики русскоязычных мигрантов в условиях многоязычной среды	280
<i>Рахмонова Нилуфар Уткир кизи</i>	
Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda leksik-grammatik komponentni diagnostika qilish metodlari	284
<i>Mamatkulova Lobar Tolibjonovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yin texnologiyalari asosida bolalarning ta'limiy faoliyatini rivojlantirish.....	288
<i>Norqulova Ma'mura Husniddin qizi</i>	
Nutqdagi fonetik kamchiliklarning o'quv faoliyati va savodxonlikka ta'siri	293
<i>Xikmatova Saboxat Xusniddinovna</i>	
Oliy ta'limda sog'lom psixologik muhitni shakllantirish omillari	296
<i>Xusanbayeva Ziyoda Maxmutdjon qizi</i>	

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA O'YIN TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BOLALARNING TA'LIMIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

Norqulova Ma'mura Husniddin qizi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti,
Maktabgacha ta'lim kafedrası stajyor o'qituvchisi

ORCID: 0009-0009-8886-1027

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida o'yin faoliyatining ahamiyati, turlari hamda o'yinni tashkil etishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning mazmuni, mexanizmi, xususiyatlari va afzalliklari yoritilgan. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatida pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalalanishning o'rni hamda ularning ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishdagi ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, o'yin faoliyati, pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar, tarbiya jarayoni, rivojlantiruvchi o'yinlar, ta'lim samaradorligi, bolalar rivojlanishi.

Abstract: This article examines the importance and types of play activities in the upbringing of preschool children, as well as the content, mechanisms, characteristics, and advantages of using pedagogical technologies in organizing play-based learning. The study also analyzes the role of pedagogical technologies and interactive methods in preschool education and highlights their significance in improving the effectiveness of educational and developmental processes.

Key words: preschool education, play activities, pedagogical technologies, interactive methods, educational process, developmental games, learning effectiveness, child development.

Аннотация: В данной статье рассматриваются значение и виды игровой деятельности в воспитании детей дошкольного возраста, а также содержание, механизм, особенности и преимущества использования педагогических технологий в организации игровой деятельности. Кроме того, проанализирована роль педагогических технологий и интерактивных методов в системе дошкольного образования, а также их значение в повышении эффективности образовательного и воспитательного процесса.

Ключевые слова: дошкольное образование, игровая деятельность, педагогические технологии, интерактивные методы, воспитательный процесс, развивающие игры, эффективность обучения, развитие детей.

KIRISH

Hozirgi globallashuv jarayonida ta'lim tizimi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri - raqobatbardosh, ijodiy fikrlovchi, mustaqil qaror qabul qila oladigan, ijtimoiy faol, zamonaviy kasb-hunar va texnologiyalarni egalagan barkamol shaxsni shakllantirishdir. Bu jarayon, o'z navbatida, ta'lim bosqichlarining har birida, ayniqsa, maktabgacha ta'lim bosqichida samarali yondashuvlar, zamonaviy metodlar, innovatsion texnologiyalar, xususan, o'yin texnologiyalaridan oqilona foydalanishni taqozo etadi.

O'yinlar turli maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lib, ular didaktik, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi hamda ijtimoiylashuv maqsadlarida qo'llaniladi. O'yinning maqsadlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, uning didaktik maqsadi bilimlar doirasini kengaytirish, bilish faoliyatini rivojlantirish, amaliy faoliyatda bilim, malaka va ko'nikmalarni qo'llash, shuningdek, umumta'lim hamda mehnatga oid malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan bo'ladi.

O'yinning tarbiyaviy maqsadi esa mustaqillik va irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar va nuqtai nazarlarni shakllantirish, ma'naviy-estetik dunyoqarashni rivojlantirish, hamkorlik, kollektivizm, jamoaga moslashuv hamda kommunikativlik sifatlarini tarbiyalashdan iborat. Faoliyatni rivojlantiruvchi o'yinlar diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash va chog'ishtirish malakalari, o'xshashliklarni topish, faraz qilish, xayol qilish hamda o'quv faoliyatiga motivatsiyani rivojlantirishga qaratilgan.

Jamiyatning qadriyatları va me'yorlariga jalb qilinish, muhit sharoitlariga moslashish, ehtiroslarni nazorat qilish, o'z-o'zini boshqarish va muloqotga o'rgatish kabi vazifalarni bajaruvchi o'yinlar ijtimoiylashuv o'yinlari hisoblanadi. Shuningdek, o'yindan tushunchalar, mavzular, hatto o'quv predmetining alohida bo'limlarini o'zlashtirishda o'qitish metodi hamda mustaqil pedagogik texnologiya sifatida foydalaniladi.



O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini bolalarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida o'yinli texnologiyalardan foydalanish orqali ko'plab samarali natijalarga erishilayotgani amaliyotda o'z tasdig'ini topmoqda. O'yinli texnologiyalarning asosini o'yin tashkil qiladi. O'yin texnologiyasi o'yin metodidan o'zining aniq maqsadi, amalga oshirilishi lozim bo'lgan jarayonlarning mantiqiy izchilligi va o'zaro bog'liqligi, shuningdek, oldindan belgilangan natijalarga erishish kafolati bilan farqlanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

L.S. Vigotskiy o'yinni bolaning ichki ijtimoiy dunyosi, ijtimoiy buyurtmalarni o'zlashtirish vositasi sifatida ta'riflaydi ^[1-1].

Bizga ma'lumki, har qanday o'yin muayyan vazifalarni bajaradi:

- maftunkorlik;
- kommunikativlik;
- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- tashxis;
- o'yin ishtirokchilari o'rtasidagi muloqot;
- ijtimoiylashuv.

Ma'lumki, o'yinlar quyidagi to'rt asosiy xususiyatga ega:

- erkin rivojlantiruvchi faoliyat, ya'ni bola o'yinni o'zi tanlaydi, unda faol ishtirok etadi. Bunda birinchi navbatda yakuniy natija emas, balki o'yin jarayoni muhim ahamiyatga ega;
- ijodiy xarakter, ya'ni o'yin jarayonida bolalar uchun ijod qilishga katta imkoniyatlar mavjud;
- emotsional ta'sir - bola o'yinda markaziy o'rin egallashni xohlaydi, g'olib bo'lishga intiladi, bu bolaning faolligini oshirishga yordam beradi;
- asosiy va qo'shimcha qoidalar o'yin mazmuni, uning mantiqiy ketma-ketligini belgilaydi.

Shuningdek, S.M. Tyunnikova: "O'yin - bu o'z-o'zidan sodir bo'ladigan jarayon emas. U faqat ma'lum sharoitlardagina yuzaga kelishi va muvaffaqiyatli amalga oshirilishi hamda ma'lum darajada o'quv materialining muammoli bo'lishini nazarda tutadi", deb hisoblaydi.

O'yin ilmiy adabiyotlarda borliq fenomeni (yunoncha phainomenon - yuz beruvchi noyob hodisa) sifatida ko'rib, mehnat faoliyati va o'rganish bilan bir qatorda turadi. O'yin nafaqat bolalar va kattalar hayotida, balki insoniyat turmushida muayyan hodisa sifatida hamda psixologiya va pedagogikada maxsus o'rganilayotgan muhim muammolardan biri hisoblanadi.

Pedagogik adabiyotlarda o'yinga berilgan ta'riflarni ko'plab uchratish mumkin. Masalan, L.P. Borzova o'zining izlanishlarida: "O'yin - bu ta'lim oluvchi uchun tabiiy o'qish usuli", hamda "Didaktik o'yin esa subyekt uchun ma'lum bir holatdagi o'quv-mashg'ulot faoliyatidir", deya e'tirof etgan. O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini maktabgacha yoshdagi bolalarning faollashtiruvchi hamda jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi.

Shuningdek, o'yinli texnologiyalar (o'yinli ta'lim) bolalarning ijtimoiy tajribalarini o'zlashtirishining barcha ko'rinishlari, ya'ni bilim, ko'nikma, malaka hamda hissiy-baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga qaratilgan shartli o'quv vaziyatlarini ifodalovchi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim turlaridan biri, ya'ni pedagogik texnologiya hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim jarayonida o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli faoliyat shaklida qo'llaniladi. Ushbu faoliyatlarda bolalarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli tarbiyalanuvchilarning ta'lim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan mashg'ulotlar didaktik o'yinli faoliyatlar deb ataladi.

Inson hayotida o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- o'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga va mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi;
- o'yin davomida shaxsning muloqotga kirishishi, ya'ni kommunikativ muloqot madaniyatini egallashiga yordam beriladi;
- shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi;

- hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengish hamda mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarining tarkib topishiga yordam beradi;
- o'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi;
- shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi ^[1-2].

Ro'zmatova M.B. maktabgacha ta'lim sohasida o'yin texnologiyalari bo'yicha muhim ilmiy ishlanmalar yaratgan olimlardan biridir. O'yin texnologiyalarining ta'lim jarayonida qo'llanilishi va pedagogik jarayonlar samaradorligini oshirishga doir olib borgan izlanishlari bolalarning kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga qaratilgan. O'yin texnologiyalariga doir ilmiy ishlanmalari asosan o'yinlarni maktabgacha ta'limda pedagogik vosita sifatida qo'llashga yo'naltirilgan.

M.B. Ro'zmatovanning fikricha, o'yinlar bolalar uchun faqat vaqt o'tkazish vositasi emas, balki ta'limni rivojlantirish, bilim olish jarayonini qulay va qiziqarli tashkil etishning samarali usulidir. Ilmiy ishlanmalarida o'yin texnologiyalarining bolalarda yangi ma'lumotlarni o'zlashtirish jarayonida qo'llanilishi, shuningdek, ularning kognitiv va emotsional rivojlanishiga ta'siri yoritilgan. Ro'zmatovanning ilmiy izlanishlarida o'yinlarning pedagogik va didaktik funksiyalarga ega ekanligi ta'kidlanadi. Unga ko'ra, o'yinlar:

- kognitiv rivojlanishga ta'sir qiladi. Bolalar o'yinlar orqali o'zlarining tafakkur, diqqat va xotira kabi ko'nikmalarini rivojlantiradilar;
- emotsional jihatdan rivojlantiradi. O'yinlar bolalarda hissiyotlar, his-tuyg'ular va ijtimoiy munosabatlarni shakllantiradi;
- ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi. Jamoaviy o'yinlar bolalar orasida muloqot, hamkorlik, o'zaro hurmat va fikr almashish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

M.B. Ro'zmatova o'zining ilmiy ishlarida maktabgacha ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, jumladan, raqamli o'yinlar va interfaol texnologiyalarni qo'llash zarurligini ko'rsatgan. U raqamli o'yinlarning pedagogik samaradorligi haqida ilmiy tahlillar olib borib, bu texnologiyalar bolalarning o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va interfaol qilishga yordam berishini ta'kidlagan.

Raqamli o'yinlar bolalarga an'anaviy metodlarga qaraganda ko'proq ma'lumotni samarali tarzda o'rgatish imkonini beradi. Shu bilan birga, bu texnologiyalar bolalarda ko'nikmalarni rivojlantirishga, masalan, raqamli vositalardan foydalanishni o'rganishga yordam beradi. Ilmiy ishlarida o'yin texnologiyalarining ta'lim samaradorligini oshirishdagi roli katta ekanligi qayd etilgan.

Shuningdek, o'yinlarni maktabgacha ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning pedagogik ahamiyatini ko'rsatib, o'yin texnologiyalarining tarbiyachilar uchun metodik vosita sifatida qanday ishlatilishini o'rgangan. M.B. Ro'zmatovanning fikriga ko'ra, o'yinlar bolalarni o'rganishga jalb etishda eng samarali vositalardan biridir, chunki o'yin bolaning tabiiy qiziqishini uyg'otadi va o'rganish jarayonini uning tabiatiga moslashtiradi.

O'yin texnologiyalarining bolalar rivojlanishiga ijobiy ta'siri bir nechta sohalarida namoyon bo'ladi:

- jismoniy rivojlanishi. Jismoniy faoliyatga asoslangan o'yinlar bolalarning motorikasi va tanaviy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- emotsional va psixologik rivojlanishi. Emotsional o'yinlar bolalarning hissiyotlarini boshqarish va atrof-muhitga moslashish ko'nikmalarini rivojlantiradi ^[2,2];
- ijtimoiy rivojlanishi. Rolli va guruhli o'yinlar bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini, muloqot qilish va jamoaviy ishlash malakalarini rivojlantiradi.

N. Qosimovanning fikricha, o'yin bolaning hayotga bo'lgan munosabatini, o'zini anglashini va boshqa bolalar bilan muloqotini shakllantiradi. U o'yinlarning maktabgacha ta'limdagi o'rnini aniq belgilab beradi hamda ularning pedagogik maqsadlarga mos ravishda turlarga bo'linishini ko'rsatadi.

N. Qosimovanning ishlanmalarida har bir o'yin turi o'ziga xos pedagogik maqsadga xizmat qilishi, ularni tanlashda esa bolalarning yoshi va individual xususiyatlariga moslashtirish zarurligi alohida ta'kidlanadi.

N. Qosimovanning tadqiqotlarida o'yinlarning bolaning rivojlanishidagi roli alohida o'rin tutadi. U o'yinlarni bolaning intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishidagi muhim vosita deb hisoblaydi. Masalan:

- **kognitiv rivojlanish.** O'yinlar bolalarning tafakkurini rivojlantiradi, ular murakkab vaziyatlarda mantiqiy fikrlashni o'rganadilar va yangi bilimlarni o'zlashtiradilar;
- **emotsional rivojlanish.** O'yinlar bolalarda hissiyotlarni boshqarish, o'z hissiyotlarini tushunish va boshqalarga hamdardlik ko'rsatish ko'nikmalarini rivojlantiradi;



- **ijtimoiy rivojlanish.** Rolli va guruhli o'yinlar bolalarda muloqot qilish, jamoada ishlash hamda o'zaro yordam berish kabi ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantiradi.

N. Qosimova o'yin texnologiyalarining maktabgacha ta'lim jarayoniga samarali tarzda joriy etilishi masalasiga alohida e'tibor qaratadi. U o'yin texnologiyalarini didaktik usul sifatida qo'llashda pedagoglarning metodik va kreativ yondashuvlarini namoyon etishi zarurligini ta'kidlaydi. Olima pedagog-tarbiyachilarni bolalar bilan o'yinlar tashkil etishda metodik yondashuvlarga e'tibor qaratishga chaqiradi hamda har bir o'yin turini to'g'ri tanlash va uning maqsadga muvofiqligini ta'minlash pedagog-tarbiyachilardan ijodiy yondashuvni talab qilishini qayd etadi.

O'yinlarning ta'lim va bolalar rivojlanishidagi o'rnini yagona tizim sifatida ko'rsatadi. U o'yin texnologiyalarining nafaqat individual, balki guruhli faoliyat sifatida ham samarali bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. O'yinlar bolalarda o'z-o'zini anglash va ijtimoiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi, shu bilan birga, ularning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'limning har bir bosqichida moslashtiriladi ^[3.1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha yosh davomida bolalar jismoniy, aqliy, ijtimoiy va emotsional jihatdan tez rivojlanadilar, o'yin, o'qitish va turli faoliyatlar jarayonida o'z dunyoqarashini shakllantiradilar, nutq, motorika va ijtimoiy ko'nikmalarni oshiradilar. Bu davr bolalar uchun ta'lim olish, o'rganish va o'zini anglashning muhim bosqichidir.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarga ta'lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek, bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'lim turidir.

2015-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti 2030-yilgacha bo'lgan davr uchun Barqaror rivojlanish maqsadlarini (BRM) belgiladi. BRMning 4.2-bandiga muvofiq, barcha qiz va o'g'il bolalarning erta bolalikda sifatli rivojlanishi, parvarish va maktabgacha ta'limga ega bo'lishi hamda boshlang'ich maktabga tayyorlanishi maqsadi qo'yildi. Bu bolalarni erta rivojlantirish bo'yicha ilk global maqsadlardan biri bo'ldi. Ammo maktabgacha ta'lim tashkilotlarida erta rivojlantirish dasturlari bilan pedagoglar qay darajada tanish? Ta'lim-tarbiya jarayonining samarali bo'lishida pedagoglar zamonaviy texnologiyalar, metod va usullar bilan nechog'lik tanish?

R. Kempl: "Bolani ko'zguga o'xshatish mumkin. U muhabbatni tarqatmaydi, balki uni aks ettiradi. Agar bolaga muhabbat bersangiz, u uni qaytaradi. Agar hech narsa bermasangiz, hech narsa qaytarib olmaydiz", degan edi. Biz hozir bolaning ruhiga nimalarni singdirsak, bu keyinchalik uning va bizning hayotimizda namoyon bo'ladi. Bugungi kunda biz bolaga nimalar beryapmiz-u, nimalarni berilishi kerak bo'lgan vaqtda bermayapmiz?

V.A. Suxomlinskiy: "Bolalik yillari - bu, avvalo, yurakni tarbiyalashdir", degan edi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun bu bilim olish, muloqot qilish va o'zini ko'rsatish imkonini beruvchi qiziqarli faoliyat bo'lsa, kattalar uchun bola shaxsini o'rganish, o'zini va o'z mahoratini sinash, mas'uliyat hamda jajjilarga bo'lgan muhabbatni his qilish uchun butun bir hayotdir. Aslida, amalda bola qalbiga quloq solyapmizmi? Kattalarning ular bilan jonli muloqoti qanday? Bu mas'uliyatli vazifani jonsiz telefon va gadjetlarga berib qo'ymayapmizmi?

TAHLIL VA NATIJALAR

Demak, tahlillar shuni ko'rsatadiki, maktabgacha yoshdagi bolalarning eng asosiy faoliyati o'yindir. Asosiy faoliyat deb bolaning ayni shu yoshida tez-tez ko'zga tashlanib turadigan xatti-harakatlariga aytiladi. Asosiy faoliyat shunday faoliyatki, bu faoliyat tufayli bolaning psixik jihatdan o'sishida jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. O'yin shu qadar universal, shu qadar ko'p qirrali va qudratli faoliyatdirki, maktabgacha yoshdagi bolalarni o'yindan boshqa kamolotga yetkazuvchi biror faoliyat turini tasavvur etish qiyin.

O'yin bolalar uchun ular organizmining tabiiy ehtiyoji hisoblanadi. Bolalarning o'yinlari asosan kattalarning ish-harakatlariga, hayotiy urf-odatlariga maxsus ravishda taqlid qilishdan iborat bo'ladi. Bolalarning o'yin faoliyatlari ularning jismoniy va psixik jihatdan garmonik ravishda o'sishlari uchun birdan-bir vositadir. Bola o'yinda qanday bo'lsa, katta bo'lganida ishda ham ko'p jihatdan shunday bo'ladi. Bu borada K.D. Ushinskiyning: "O'yinda buyruq bilan bajarishga yoki bo'ysunib o'rgangan bola haqiqiy hayotda bu yo'nalishdan chiqib ketishi anchayin qiyin bo'ladi", degan qarashlarini hamisha yodda tutishimiz zarur.

U bolalar o'yinidagi mustaqillikka o'ziga xos xususiyat sifatida qarab: "O'yin shuning uchun ham o'yinki, u bola uchun mustaqil mashg'ulotdir. Haqiqiy hayotda bola bolaligicha qoladi, undan ortiq emas, u hech qanday mustaqillikka ega bo'lmagan norasida, hayot oqimida ko'r-ko'rona va betashvish suzayotgan go'dakdir; o'yinda esa bola boshqacha odam, u endi kamol topayotgan, o'z kuchini sinab ko'ra oladigan va o'zi yaratgan narsasini mustaqil idora eta oladigan insondir", deb ta'kidlagan.

Kelajak Uchinchi Renessans yoshlar qo'lida ekan, bugun bolalar o'yinidagi munosib sheriklik, "aqlli qo'l - aqlli miya" tamoyilini unutmashimiz shart. Haqiqiy o'yin doimo tashabbus, topqirlik va zukkolik bilan bog'liqdir. Lekin o'yin ham kerakli vaqtda, kerakli joyda va kerakli me'yorda bo'lsagina emotsional ta'siri kuchli bo'ladi ^[4.1].

O'yinning kelib chiqishi haqida birinchi bor G.V. Plexanov "Adressiz xatlar" asarida: "O'yin mehnatning farzandi, u mehnatdan oldin paydo bo'lgan hodisadir", deb yozgan. O'yinda kattalar faoliyatiga taqlid, ya'ni o'g'il otaga, qiz onaga taqlidan harakat qiladi. U o'yinni "turli avlodlarni bog'laydigan va madaniy qadriyatlarni avloddan-avlodga uzatuvchi zanjir bo'lib xizmat qiladigan aloqa vositasi", deb hisoblagan edi.

Darhaqiqat, bolalar o'yinida oila muhiti, yaqinlarining o'zaro munosabati va turmush tarzi aks etadi, taqlid qilinadi hamda o'sha qiyofa gavdalantiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi o'yin muhiti tarkibini quyidagilar tashkil etadi:

1. **O'yin joyi (zonasi)** - loyiha asosida tashkil etilgan rivojlanish markazlarining har biri uchun alohida joy ajratilgan bo'lib, bunday chegaralanish har bir markazning chegaralarini aniq belgilaydi, bir vaqtning o'zida markazdan foydalanadigan bolalar sonini cheklaydi va xona bo'ylab harakatlanishning xavfsiz yo'llarini ko'rsatadi.
2. **O'yin anjomlari** - bolalar foydalanishlari uchun har bir rivojlanish markazi bo'yicha alohida o'yin anjomlari tanlab olinadi. O'yin anjomlarini tanlashda bolalarning yoshi, psixologik va fiziologik xususiyatlari inobatga olinadi.
3. **O'yinchoqlar** - bola hayotining dastlabki davrlaridan boshlab unga yo'ldosh bo'lib keladigan quvonch manbaidir. O'yinchoq bolaning o'ynashi uchun mo'ljallangan va boshqa maqsadlarda foydalanilmaydigan buyum hisoblanadi. Unda buyumlarning tipik xususiyatlari umumiy tarzda aks etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Rivojlantiruvchi o'yin muhiti maktabgacha yoshdagi bolalarning erta rivojlanishida beqiyos ahamiyatga ega bo'lib, quyidagi natijalarni namoyon qiladi:

1. **Kognitiv.** Bu bolaning atrofdagi dunyoni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyojini qondiradi, kognitiv faoliyatni rag'batlantiradi.
2. **Kommunikativ.** Bu nutq rivojlanishini rag'batlantiradi, bolaga muloqot va o'zaro ta'sir asoslarini o'rganish imkonini beradi.
3. **Sog'lomlashtiruvchi.** Bu harakat faoliyatini rag'batlantiradi, harakat tajribasini boyitadi hamda jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush madaniyati bilan tanishtiradi ^[5.1].
4. **Ijodiy.** U bolalarni ijodiy faoliyat bilan tanishtiradi, o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini anglashga yordam beradi, muammolarni hal qilish, yangi g'oya va yechimlar topish malakasini mustahkamlaydi.

To'g'ri tashkil etilgan rivojlantiruvchi o'yin muhiti kattalar uchun bolaning uyg'un rivojlanishiga, guruhda emotsional ijobiy muhit yaratishga, o'yin-tadbirlarni uyushtirish va o'tkazishga yordam beradi hamda shu orqali bolalarni mustaqil bo'lishga o'rgatadi.

Rivojlantiruvchi o'yin muhitining tashkil etilishi bolalarning o'rganish jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlaydi, ularning maktabga tayyorlanishi va shaxsiy rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratadi. Shuning uchun ta'lim tashkilotlarida o'yin muhitini shakllantirish bolalarning erta rivojlanishini ta'minlashda eng muhim omillardan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qodirova F.R., Toshpo'latova Sh.Q., Qayumova N.M., A'zamova M.N. Maktabgacha pedagogika. - Toshkent: Tafakkur, 2019. - 313 b.
2. Mamajonova N.M., Bekchova F.M., Durdieva M.A. Maktabgacha ta'lim-tarbiyani tashkil etish. - Toshkent: Bookmany Print, 2023. - 169 b.
3. Тюнникова С.М. Использование игры в учебно-воспитательной работе мастера производственного обучения: методические рекомендации. - М.: Просвещение, 1990. - 60 с.
4. Takomillashtirilgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. - Toshkent, 2022. - 36 b.
5. Xalimjanovna A.M. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiyaviy faoliyatlarni tashkil etishga zamonaviy yondashuv: ta'lim bilan amaliyot integratsiyasi // Science and Innovation. - 2024. - Vol. 3, Special Issue 31. - P. 451-454.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.